

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

BIOLOGIYA

D.R.Kapizova, I.I.Zokirov

Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili
(Sharqiy Farg'ona hududi misolida) 101

R.N.Mo'minova

Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari 106

С.Д.Дадаев, Д.А.Палуаниязова

О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого
рогатого скота Каракалпакстана 110

S.B.Orifov, F.R.Xolboyev

Hind chumchug'i- *Passer indicus* ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati 116

N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva

Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqanotli hasharotlari (insecta: lepidoptera) 121

M.A.Axmadjonova

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Sitona* Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga
mansub turlarning bioekologik xususiyatlari 127

V.A.Karimov, M.Nazarov

Jadal texnologiyada arpa yetishtirish 133

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev

Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish 142

I.O.Sulaymonov

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlari 146

Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev

Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi 150

I.Aripov, R.Mariya

Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining
iqtisodiy baholanishi 154

A.U.Usmonov, A.K.Ergashev

Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari
(Vobkent tumani misolida) 161

O.N.Xakimov

Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi 166

O.N.Xakimov

Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasini tadqiq qilishdagi o'rni 178

ILMIY AXBOROT

Y.E.Altiboyev

Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili 190

A.A.Akramov

Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini
takomillashtirish modeli 195

M.J.Urinov

Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga
falsafiy tavsif 199

B.F.Abdishukurov

Markaziy Osiyodagi hududiy-chejaraviy muammolar
(1924-yildan keyingi voqealar xususida) 203

A.M.To'rayev

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish....207

Sh.M.Kadirov

Talabalarda tarixiy vogelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini
rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish 210



УО'К: 551.435.126(282.255.1)

KOLLEKTOR GEOTIZIMLARIDAGI RELYEFNING HAVZAVIY STRUKTURASI
БАССЕЙНОВАЯ СТРУКТУРА РЕЛЬЕФА В КОЛЛЕКТОРНЫХ ГЕОСИСТЕМАХ
BASIN STRUCTURE OF RELIEF IN COLLECTOR GEOSYSTEMS

Xakimov Olimjon Nematovich 

Angren shahar ixtisoslashtirilgan maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Amudaryo hozirgi deltasi kollektor geotizimlаридаги relyefning havzaviy strukturasi ilk bor tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, kollektor havzalarining ichki tuzilishini tashkil etган kichik deltalarning daraxtsimon strukturasi ko'rib chiqiladi. Struktura ta'lomi asosida sug'oriladigan hududlarning Yer resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy asoslari bilan bir qatorda ularning amaliyotdag'i o'rni ham bayon qilinadi.

Аннотация

В статье впервые рассматривается бассейновая структура рельефа в коллекторных геосистемах современной дельты Амударьи. Вместе с этим анализируется древовидная структура мельких дельт, составляющих внутреннюю структуру бассейнов коллекторов. Наряду с научными основами рационального использования земельных ресурсов орошаемых площадей, описаны практического значения этих проблем.

Abstract

In the article, the basin structure of the relief in the current Amudarya delta collector geosystems is analyzed for the first time. In addition, the tree-like structure of small deltas, which make up the internal structure of the collector basins, is considered. Along with the scientific basis of effective use of Earth's resources of irrigated areas based on the theory of structure, their role in practice is also described.

Kalit so'zlar: kollektor havzasi, relyefning havzaviy strukturasi, Yer resurslari, kichik deltalar, tizimli foydalanish, geotizim, relyef plastikasi, balandliklar va pastliklar.

Ключевые слова: бассейн коллектора, бассейновая структура рельефа, Земельные ресурсы, мелькие дельты, системные использования, геосистема, пластики рельефа, повышения и понижения.

Key words: reservoir basin, basin relief structure, Land resources, small deltas, systemic uses, geosystem, relief plastics, rises and falls.

KIRISH

Amudaryo hozirgi deltasi tabiiy-meliorativ sharoitining tizimli tuzilishini baholashda kosmosuratlardan foydalangan holda topografik kartalar yordamida tuproq-geologik qobiqni birlashtiruvchi yagona yaxlitlikni aniqlashni talab etadi. Bizning fikrimizcha, bunday hududi yaxlitlik birligi har qanday tartibdagi bir tomonlama yo'nalgan tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarining havzasi bo'lishi mumkin (bu o'rinda tadqiqotning masshtabiga bog'liq). Tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarining havzalari sug'oriladigan hududlarda kollektorlarning funksional yaxlitligini tashkil qiladi.

Sug'orma dehqonchilik uchun yerlarni baholashda landshaft komponentlari o'rtasidagi aloqadorlikka asoslangan landshaft indikatsiya usuli qo'llaniladi (Zvonkova va boshqalar, 1973). Biroq A.M.Shulgin (1980) fikricha, "asosan landshaft kartasini izohlashga asoslangan landshaft indikatsiya usullari yetarli emas. Tizimli-strukturaviy yondashuv matematik usullardan foydalangan holda hududni melioratsiya maqsadlari uchun miqdoriy baholashni amalga oshiradi.

Shu bilan birga, Amudaryo hozirgi deltasining tabiiy-meliorativ sharoitini tadqiq qilish va baholash uchun biz tabiiy geografiyadagi funksional-yaxlitlik yondashuvning elementi sifatida havzaviy usul relyef plastikasidan foydalandik. Ushbu tizimli usul obyektning funksional yaxlitligini aniqlashga, ya'ni relyef strukturasining fazoviy tartibligiga, kollektor havzasidagi tabiat komponentlarining tizimli o'zgarishiga, relyef strukturasini bilan bog'liq bo'lgan tabiiy-geografik jarayonlarga asoslanadi.

GEOGRAFIYA

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

A.Y.Reteyum (1975) tabiiy geografiyada uchta yondashuv mavjudligini qayd etadi: genetik, tipologik va funksional. Geotizimlarning yaxlitligini va landshaftlarning tipologik birliklarini hamda genetik guruhlarni ajratishda deb yozadi muallif – tabiiy geografik birliklarning tabiatdagি obyektivligiga asoslanadi. Uning fikricha, funksional yondashuv Yer yuzining tizimli bo'linishini o'zining maqsadi deb biladi.

Funksional-yaxlitlik yondashuvning tamoyillarini o'rganib chiqib (Reteyum, 1971, 1975; Gvozdetskiy, 1974; Dyakonov, 1975 va boshqalar), muallif Amudaryo hozirgi deltasi Yer yuzining kollektor havzalari bo'yicha tabaqlanishi kerak degan xulosaga keladi. Hududning funksional-yaxlitlik prinsipi bo'yicha bo'linishi ushbu havzalarni landshaft-geokimyoiy usuli bo'yicha tadqiq qilishni taqozo qiladi, ya'ni kollektor havzalarining tabiiy-meliorativ holatini tahlil qilish va baholash yer usti suvlarining minerallashuv darajasini va kimyoviylarini havzaning so'ngida joylashgan o'zgarish ma'lumotlariga asoslanadi. Bunday tadqiqot natijalari sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini o'zgarishining asosiy omillarini ochib beradi, ya'ni ular ma'lum bir kollektor havzasidagi aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, kollektor havzasidagi o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi omil bu yer usti suv oqimidir, ya'ni yer usti suv oqimi kimyoviylarining bir joydan ikkinchi joyga harakatida asosiy omil bo'lishi natijasida havzaning yuqori qismi bilan uning quyi qismi o'tasida farqlar juda katta bo'ladi.

Tabiiy- meliorativ sharoitning tizimli tuzilishini tadqiq qilish va baholash alohida qiziqish uyg'otadi. Kollektor havzalari sug'oriladigan hududlarda eng ko'p tarqalgan funksional-yaxlitlik geotizimdir. Yer usti va grunt suvlarining tabiiy oqimlari shunday omilki, ularning ta'sirida geografik qobiqda o'ziga xos delta geotizimlarini hosil qiladi, ya'ni deltada mavjud bo'lgan o'zanbo'yi balandliklari yer usti va grunt suvlarining oqimlari vujudga keltiruvchi geografik omildir. Kollektor havzalarining o'ziga xos ichki tuzilishi va landshaft morfologik birliklarining hosil bo'lishi o'z navbatida tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham elementar landshaftlarning guruhlari va kollektor havzalarining ichki tuzilishi tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlaring yo'naliishini aniq tasvirlab beradi (rasm 1). Agar biz Ustyurt kollektor havzasining ichki tuzilishini tahlil qiladigan bo'lsak, u o'z navbatida Ravshan kichik deltasining yuqori va o'rta qismlaridan, Uldaryo kichik deltasining sharqiy qismidan, Amudaryo o'zanbo'yi balandliklaridan, Oqboshli kichik deltasining g'arbiy qismidan hamda Qiziljar qiridan tashkil topgan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, Moshanko'l deyarli o'zanlararo pastliklarning o'rtasida joylashgan bo'lib, kollektor o'z suvini Moshanko'lning janubiga quyadi. Shu bilan bir qatorda, rasmda tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlaring yo'naliishlari ham aniq tasvirlangan. Boshqacha so'z bilan aytganda, Ustyurt kollektor havzasining maydoni Qo'ng'irot kollektor tizimiga nisbatan kichik maydonni egallaydi. Ammo mana shu egallagan kichik maydonda ham tuproqlar sho'rланish darajalarining barchalari uchraydi, ya'ni mana shu kichik maydonda ham tuproqlar barcha sho'rланish darajalarining uchrashiga asosiy sabab grunt suvlarining chuqurligidir.

I.N.Stepanov (1986) o'zining ilmiy asarida delta geotizimlarining tuproq qoplami strukturasini tadqiq qilishda tuproqlarning relyef elementlari bilan aloqadorligiga katta e'tibor berishini ta'kidlab o'tadi.


Bir so'z bilan aytganda, olim tuproqlar meliorativ holatining shakllanishida yer usti suv oqimining roliga alohida e'tibor qaratadi. Demak, tabiiy-geografik fanlarning rivojlanishi shuni ko'rsatmoqdaki, landshaftlarning hosil bo'lishidagi yer usti suv oqimlaring roliga e'tibor yanada ortmoqda, ya'ni yer usti suv oqimlaring faoliyati natijasida delta geotizimlari hosil bo'lgandir.

Biz kollektor havzasining funksional-yaxlitligi deganimizda eng avvalambor shu kollektor havzasidagi kichik deltalarning tizim hosil qiluvchi yer usti oqimlari orqali bir-biri bilan bo'lgan aloqadorligini tushunamiz. Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, kollektor havzalarida Yer yuzasi relyefning havzaviy strukturasini hosil qiladi, ya'ni relyefning havzaviy strukturasini deyilganda, biz delta geotizimlarida mavjud bo'lgan o'zanbo'yi balandliklari, o'zanbo'yi balandliklarining yonbag'irlari va o'zanlararo pastliklarning tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari orqali aloqadorligini tushunamiz. Relyefning uch shakli o'zarobirlashib, kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasini hosil qiladi, ya'ni relyefning uch shakli o'zanbo'yi balandliklaridan kollektor o'zani o'tgan tomonga qarab bir-biri bilan tizimli almashinadi. Shuning uchun ham kollektor havzalarining o'ziga xos relyef strukturasini hosil qilishini Yer yuzasiga nisbatan biz ilk bor


relyefning havzaviy strukturasi degan tushunchani qo'lladik. Har bir kollektor havzasidagi relyefning uch guruhi o'zining maydonlari bo'yicha bir-biridan farq qilishi tabiiy, ya'ni relyefning uch guruhiga bog'liq holda tabiiy-meliorativ sharoiti ham har xil bo'ladi. Misol uchun, kollektor tashlama-1 (KT-1) havzasida (Rasm 2) o'zanbo'yi balandliklari ko'p maydoni egallagani uchun tuproqlarning meliorativ holatida kam sho'rangan tuproqlar ustunlik qilsa, KT-4 havzasida o'zanlararo pastliklar ustunlik qilganligi uchun tuproqlarning meliorativ holatida kuchli sho'rangan tuproqlar ustunlik qiladi. Bir so'z bilan aytganda, kollektor havzasidagi Yer yuzasiga nisbatan relyefning havzaviy strukturasi tushunchasini qo'llaganda, biz avvalambor har ularning bir kollektor havzasidagi relyefning havzaviy strukturasi o'ziga xos bo'lib, bu havzaviy struktura boshqa kollektor havzalarida uchramaydi, ya'ni relyefning havzaviy strukturasini tashkil etuvchi relyef uch guruhining sifatida iqlim, relyef va yer usti suv oqimlari ta'sir etadi hamda maydoni faqat ana shu kollektor havzasiga xosdir. Qisqa qilib aytganda, kollektor havzalaridagi Yer yuzasi garchi relyefning havzaviy strukturasiga ega bo'lsa ham, ammo ular o'zlaridagi relyefning uch elementlari maydonlari bo'yicha bir-biridan farq qilish tabiiydir. Shuning uchun ham kollektor havzasiga nisbatan relyefning havzaviy strukturasi tushunchasini qo'llaganda, biz kollektor geotizimlaridagi relyefining havzaviy strukturasini faqat ana shu kollektor havzasiga xosligini tushunamiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

S.D.Muraveyskiy (1948) geografik omil sifatida yer usti suv oqimi jarayonlarini tahlil qilishning ahamiyatiga e'tibor qaratadi. U ta'kidlaganidek: "Transportsiz, harakatsiz hech qanday



Rasm 1 Ustyurt kollektor havzasining funksional yaxlitligi. Shartli belgilari: 1-Ravshan kichik deltasi; 2. Uldaryo kichik deltasi; 3. Amudaryo o'zanbo'yi balandligi; 4-Oqboshli kichik deltasi; 5- Qiziljar qiri; 6- Kollektorlar; 7- Tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarining yo'nalishi




Rasm 2. Kollektor tashlama -1 (KT-1) ning havzasi va uning ichki tuzilishi. Shartli belgilar: 1- Qizketken-Chimboy kichik delta; 2- Qozoqdaryo kichik delta; 3- Erkidayro kichik delta; 4- Sho'rtamboy kichik delta; 5- Amudaryo o'zanbo'yı balandliklari; 6- Kuskanatau qiri; 7- Kollektorlar; 8- Kollektor tashlama -1 (KT-1) ning chegarasi.

harakat, o'zaro bog'lanishlar, o'zaro ta'sirlar bo'lishi mumkin emas. Transportining bu eng muhim roli, moddalarning Yer yuzasi bo'ylab harakatlanishi birinchi navbatda va asosan yer usti suv oqimi jarayonining zimmasiga tushadi". Delta sharoitida geografik omil sifatida yer usti suv oqimining roli turli yoshdag'i kichik deltalarning hosil bo'lishida (relyef va tuproq hosil bo'lish jarayonlari) eng aniq

GEOGRAFIYA

namoyon bo'ladi. Shuningdek, u suv-tuz rejimi va tuproqlarning litologik-mexanik tarkibi, yer usti hamda osti suvlarning kimyoviy tarkibiga va boshqa jarayonlarga ta'sir etadi (Rasm 3). Boshqacha so'z bilan aytganda, landshaftlarning hosil bo'lishida geografik omillar ta'siri birgalikda ro'y beradi, ya'ni S.D.Muraveyskiyning fikricha bu geografik omillarning barchasi teng huquqqa ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, yer usti suv oqimi geografik majmualar chegaralarini belgilashda va shu jumladan kollektor havzalari chegaralarini aniqlashda ham katta ahamiyatga ega. Tabiat obyektlarining chegaralarini belgilashda asosan tuzlarning (kimyoviy elementlarning) migratsiya yo'llarining keskin o'zgarishi, ularning sifat tarkibi, moddalar aylanishining buzilishlari bilan belgilanadi va bu o'zgarishlar hamda buzilishlarda yer usti suv oqimi muhim rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, yer usti suv oqimining roli moddalarning bir joydan ikkinchi joyga migratsiyasida belgilanadi, ya'ni kimyoviy elementlarning migratsiyasi landshaftlarning sifat o'zgarishlarida muhim rol o'ynaydi. Funksional-yaxlitlik yondashuv nuqtai nazaridan yer usti suv oqimining ahamiyatini bilish ham muhimdir. A.Y.Reteyum (1971) ta'kidlaydiki, ko'rib



Rasm 3. Geografik omillarning va asosiy tabiiy jarayonlarning bir-biriga ta'sir etish sxemasi (S.D.Muraveyskiy, 1948)

chiquayotgan funksional-yaxlitlik yondashuv asosida Yer yuzasini bo'linishining asosiy metodologik vositasi yer usti suv oqimlarining rolini tahlil qilish bo'lib, bu ularning geotizimlaridagi roli bilan izohlanadi. Shu bilan birga, A.Y.Reteyum yer usti suv oqimining roliga katta baho berib, geotizimlarning vujudga kelishida yer usti suv oqimlarini tizim hosil qiluvchi oqimlar deb qaraydi, ya'ni olimning fikri bo'yicha, havzalarni hosil qilgan landshaft komplekslarini geotizim deb atashni taklif etadi. Ammo geotizimlarning hosil bo'lishida yer usti suv oqimining roliga haddan tashqari katta baho berish ham mumkin emas. Chunki yer usti suv oqimi nafaqat tizimdan yuqori turmaydi, balki yer usti suv oqimining o'zi ham uning mahsulidir.

Funksional-yaxlitlik yondashuvni hozirgi vaqtida juda ko'p muvaffaqiyatlarga erishdi. Ana shuning uchun ham bu yondashuvni faqat tabiiy geograflar emas, balki shu bilan birgalikda geoiximiklar, gidrolog, tuproqshunoslar, gidroximiklar va boshqalar qo'llab-quvvatlamoqdalar.

Kollektor havzasini funksional-yaxlitlik tizimi sifatida o'rganishda asosiy e'tiborni sug'oriladigan hududlardagi tabiiy-meliorativ sharoitning tizimli tuzilishini tahlil qilishga va baholashga qaratish imkonini beradi. Sug'oriladigan hududlarni tadqiq qilishda funksional-yondashuvni qo'llashning ijobjiy tomoni shundaki, asosiy tadqiqot obyekti bo'lgan kollektor havzasi o'z navbatida chegarasi aniq tasvirlangan geotizimni hosil qiladi. Biz tomondan geotizim sifatida tadqiq qilinadigan kollektor havzasi quyidagi tizimlarni o'rganish imkoniyatini beradi: gidrologik (irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari va ularning tartibi, yer usti va osti suvlaringin o'zaro bog'liqligi va boshqalar), geomorfologik (relyef balandlik va pastlik elementlarining birikuvi, Yer yuzi relyef strukturasining tartibligi va boshqalar), tuproq (tuproqlarning relyef elementlari bilan birikuvi, tuproqning hosil bo'lismida, dinamikasida va taraqqiyotida relyefning roli va boshqalar) va boshqalar. Shu bilan birgalikda, bu tadqiqotlarning natijalari relyef plastikasi usuli yordamida Yer haqidagi fanlarning tematik kartalashtirilishida ham keng qo'llaniladi.

V.I.Vernadskiy (1975) birinchilardan bo'lib, havzalarning tuproq qoplami yer usti suvlaringin kimyoviy tarkibiga ta'sirini ta'kidlab o'tadi, ya'ni bu aloqadorlikda yer usti suvlari va tuproqlar birgalikda ishtirot etadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, yer usti suvlari bilan tuproqlarning o'zaro aloqadorligini daryo havzalarini misolida tadqiq qilish doimo ijobjiy natijalarga olib keladi. Biz ham olimning fikriga har tomonlama qo'shilgan holda, tuproq va yer usti suvlaringin o'zaro aloqadorligini tadqiq qilishda kollektor havzalarini taklif etamiz, ya'ni kollektor havzalarini ham daryolar havzalarini kabi tabiiy chegarasiga ega hamda sug'oriladigan hududlardagi obyektiv borliqdir.

V.I.Vernadskiy ta'lomi gidrokimyogarlar va geokimyogar landshaftshunoslar faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, S.A.Alekin (1970), A.I.Perelman (1955), M.A.Glazovskayalarning (1964) ko'rsatishicha, Yer daryo suvlaringin kimyoviy tarkibi birinchi navbatda tuproq qoplaming xususiyatlari bilan belgilanadi, ya'ni atmosfera yog'inlari tuproqqa shimaladi va jarayonning so'nggisida ular daryolarga quyiladi.

M.I.Lvovichning (1963) ma'lumotiga ko'ra, gidrologik omillar orasida tuproq iqlimdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ular iqlim va suv rejimi, shu jumladan daryo va yer osti oqimi o'rtasida vositachi rolini o'ynaydi. Suv aylanishi bilan bog'liq biron bir hodisa tuproqni chetlab o'tmaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda, tabiatda suv bilan tuproqlar o'rtasidagi aloqadorliklar doimo uzlusiz davom etadi, ya'ni moddalarining migratsiyasida tuproq va suvlar deyarli bir funksiyani bajaradi.

I.N.Stepanov, E.I.Chembarisov (1978), I.N.Stepanov (1979) daryolar havzalarida hosil bo'ladigan galogeokimyoviy oqimlar va daryo oqimining o'zi o'rtasida aniq bog'liqlik borligini ishonchli isbotladilar. Bu aloqa yer osti suvlari orqali amalga oshiriladi va havzaning chiqish qismida gidrokimyoviy oqimni tahlil qilish orqali qonuniyatni aniqlash mumkin.

Amudaryo hozirgi deltasining Yer yuzasini funksional-yaxlitlik tamoyiliga ko'ra kollektor havzalariga bo'linishining obyektivligi turli muammolarni hal etishda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan funksional yondashuvni qo'llashni ta'minlaydi. Kollektor havzalarini tabiatdan foydalanishda optimallashtirish loyihamalarini ishlab chiqish uchun tabiiy asos yaratadi, ya'ni kollektor geotizimlari o'zlarining yaxlitligi sababli irrigatsiya-melioratsiya tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun asos bo'la olish qobiliyatiga ega. Shu bilan birgalikda kollektor havzalarini sug'oriladigan hududlarni tabiiy-meliorativ rayonlashtirish uchun ham asos bo'la oladi.

So'nggi o'n yilliklardagi ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, funksional-yaxlitlik yondashuvda "tizim" kategoriysi emas, balki "struktura" kategoriysi katta ahamiyat ega. Boshqacha so'z bilan aytganda, bizning tadqiqotimizda relyef strukturasini asosiy ahamiyatga egadir, ya'ni har bir kollektor havzasining relyef strukturasini tadqiq qilgandan so'ng, u o'ziga xos relyef strukturasiga ega bo'lgan geotizimligi isbotlanadi. Bir so'z bilan aytganda, strukturani o'rganish orqali geotizimni topish va uning funksional-yaxlitligini konstruktiv tushuntirish mumkin. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, muammoning dolzarbli shundaki, kollektor havzasidagi Yer yuzasining strukturasi va ichki tabaqalanishi bilan geografik majmualarning moddiy tarkibi bog'langandir. Delta geotizimida bu muammoni hal qilish ayniqsa zarur, chunki havzada genezisi va ichki tuzilishi bilan farq qiladigan kichik deltalar, qirlar va qumli massivlar keng targalgan. Bir so'z bilan aytganda, kollektor havzasida kichik deltalarning soni kam bo'lib va ular faqat o'zanbo'yи balandliklaridan tashkil topgan bo'lsa, bu havzadagi tuproqlarning meliorativ holati ijobjiy bo'ladi yoki kollektor havzasida kichik deltalarning soni ko'p bo'lib va ular faqat o'zanlararo pastliklardan tashkil topgan

GEOGRAFIYA

bo'lsa, u holda bu kollektor havzasidagi tuproqlarning meliorativ holati salbiy bo'ladi.

Havza ichidagi relyefning tabaqlanishini va kichik deltalar Yer yuzasining tartibligini tasvirlashda relyef plastikasi usulining foydalanishi o'z navbatida kollektor havzasidagi Yer yuzasining qonuniyatlarini tadqiq qilish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, kollektor havzalarining funksional-yaxlitligi har xil yoshdagagi kichik deltalarining o'zaro yig'indisidan va aloqadorligidan tashkil topgan. Bu esa kichik deltalar Yer yuzasi rasmlarining tartibligini o'rganishga e'tibor berish imkonini beradi. Ularning tartibliliqi mezoni har bir kichik delta butun Amudaryo hozirgi deltasining bir qismi sifatida mavjudligi, ya'ni har bir kichik delta (geotizim) o'zining boshlang'ich nuqtasiga, yuqori, o'rta va quyi qismlariga egadir. Aniq bir misolga murojaat qilaylik: Amudaryo hozirgi deltasining boshlang'ich nuqtasi Taxiatosh shahri yaqinida joylashgan bo'lsa, u Orol dengizining qirg'oqlarida (1961 yilga malumotlarga ko'ra) tugaydi. Uldaryo kichik deltasining boshlang'ich nuqtasi Xo'jeyli shahri yaqinida joylashgan bo'lsa, o'rta qismi Qo'ng'irot shahri atrofidadir. Uning quyi qismi Sudochye ko'li atrofida joylashgan. Kichik deltalarining bu elementlari o'zlarining ichki strukturasi bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi.

Struktura tushunchasi uzoq vaqtдан beri tabiiy geografiyada qo'llanilgan va uning barcha paradigmalarining (geokomponentli, geokompleksli, ekologik va geostruktura paradigmalar) qonuniy mulki hisoblanadi. Ushbu tushunchaning ko'plab mayjud ta'riflarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, struktura deganda tizim elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va aloqadorliklar tushuniladi (Ishanqulov, 1986; Kaloshin, 1980; Lastochkin, 1987; Ovchinikov, 1967; Preobrajenskiy, 1972; Solnsev, 1981; Stepanov, 1986; Spiridonov, 1985; Urazbayev, 2002). Falsafa lug'atida (Toshkent, 1976, 454 bet) strukturaga shunday ta'rif beriladi: "Struktura – sistema tashkil topishining tuzilishi va ichki shakli, bu shakl mazkur sistema elementlari o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi". Boshqacha so'z bilan aytganda, struktura tushunchasi albatta elementlarni o'z ichiga oladi, ya'ni elementlarsiz strukturaning o'zi bo'llishi mumkin emas. Ana shuning uchun ham biz mana shu ta'rifdan kelib chiqqan holda, Amudaryo hozirgi deltasini Yer yuzasining strukturasi deyilganda, relyefning elementlarini (balandliklar va pastliklar) hisobga olamiz. Relyefning elementlari allyuvial tekisliklarda, qirlarda va qumli massivlarda bir-biriga nisbatan turlicha joylashadi. Shuning uchun ham relyefning bu turlari bir-biridan o'zlarining ichki strukturasi bo'yicha farq qiladi. Qisqa qilib aytganda, har bir obyektda elementlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari turlicha bo'ladi va shuning uchun ham obyektlar o'zlarining ichki tuzilishiga ega bo'ladi. B.B.Polinov (1956) elementar landshaft deganda, "Ma'lum joyda nafaqat tuproq turi, balki shu bilan birgalikda tuproqlarning xillari yoki ularning birikmalari saqlanib qolinadi", ya'ni olim elementar landshaftlarni ajratishda asosiy e'tiborni tuproqlarga qaratgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, elementar landshaftda har bir tuproq turi relyefning elementlari (balandlik, yonbag'ir va pastlik) bilan birikib, elementar landshaftning guruhlarini (ellyuvial, trans-ellyuvial, superakval, akval) hosil qiladi. Qisqa qilib aytganda, B.B.Polinov o'zining mutaxassisligi bo'yicha tuproqshunos bo'lsa ham, elementar landshaft tushunchalarini fanga kiritib, ya'ni landshaft geokimyosi faniga asos soldi. U ajratgan elementar landshaft guruhlari eng avvalambor bir-birdan kimyoviy elementlarning miqdorlari bo'yicha farq qiladi. Bunday olib qaraganda, relyefning elementlari hamma joyda mavjud bo'lib, ularning bir-biridan farq qilishi kimyoviy elementlarning migratsiyasiga asos yaratadi.

Hozirgi vaqtida shu narsa ma'lum bo'ldiki, funksional-yaxlitlik yondashuvi obyektni o'rganishda o'zining ijobjiy tomoniga ega ekanligi va genetik, tipologik, funksional-yaxlitlik yondashuvlar bir-birining o'rnini bosa olmaydi, aksincha ular bir-birini to'ldiradi. Shuning uchun ham biz o'z tadqiqotlarimizda funksional-yaxlitlik yondashuvi bilan bir qatorda genetik usulga ham katta e'tibor qaratdik.

Hududning tabiiy geografiyasi va geomorfologiyasi fanlarining eng muhim vazifalaridan biri, bu delta geotizimlari Yer yuzasining kelib chiqishi, dinamikasi va taraqqiyoti muammosidir, ya'ni Amudaryo hozirgi deltasining funksional-yaxlitligidir. Geografik komplekslarning vujudga kelishida geografik omillar – iqlim, yer usti suv oqimi va relyef aniqrog'i, iqlim jarayoni, yer usti suv oqimi jarayoni va relyefning hosil bo'lish jarayoni katta ahamiyatga ega. S.D.Muraveyskiy (1948) fikricha, yer usti suv oqimi geografik omil sifatida juda yaqinda kashf etildi. Yer usti suv oqimining Yer yuzasi hosil bo'lishidagi asosiy roli shundaki, kichik deltalarining daraxtsimon strukturasining hosil bo'lishida asosiy "aybdor"dir. Bu shuni anglatadiki, kichik deltalarining "shoxlanuvchi" strukturasi yer

usti suv oqimi jarayonining natijasidir.

Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, bu fanlar geografiyaning alohida tarmoqlari emas, balki mustaqil fanlar hisoblanadigan iqlimshunoslik, gidrologiya va geomorfologiyadir. Bu fanlar o'zlarining asosiy muammolari deb, jarayonlarning kelib chiqishi va taraqqiyotini tadqiq qiladi, ya'ni iqlim hosil bo'lish jarayonlari, yer usti suv oqimlarining hosil bo'lish jarayonlari. Boshqacha so'z bilan aytganda, iqlim, relief va yer usti suv oqimlari birlashuvchi geografik omillarning paydo bo'lishini belgilab beradi. Geografik omillar bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilish natijasidagina birlashuvchi geografik omillarga aylanadi. Ushbu o'zaro ta'sir, yuqorida aytib o'tganimizdek, yer usti suv oqimlari jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan kichik deltalarining ichki tuzilishida va rasmlarida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, reliefning geografik omil sifatida asosiy ahamiyati shundan iboratki, relief strukturasini tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarining yo'nalishini belgilab beradi, ya'ni yer usti suv oqimining faoliyati natijasida suvda erigan barcha kimyoiy elementlar migratsiya jarayoniga uchraydi.

Kichik deltalar strukturasining havza ichidagi tabaqalanishi yoki tartibining mazmuni turli xil, ya'ni bularning turli xilligi Yer yuzasi shakllarining tarixini o'rganish natijasida namoyon bo'ladi. Ilmiy bilimlarning boshlanishi delta geotizimlarining alohida qismlarga (kollektor havzalari, kichik deltalar) tabaqalanishi va ularning tadqiq qilish bilan bog'liqdir. Aynan relief elementlari tushunchasi bilan delta geotizimlarining daraxtsimon strukturasining hosil bo'lishi haqidagi mantiqiy bilimlar shakllanadi. Funksional-yaxlitlik yondashuvi reliefning balandlik va pastlik elementlari o'rtasidagi muntazam aloqalarini aniqlashga, reliefning elementlardan tashkil topganligiga asoslanadi. Kollektor havzalarining hosil bo'lish sharoitlarini ochib beradi. Elementlar o'rtasidagi aloqalarini va munosabatlarni tadqiq qilish relief plastikasi usulining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Havza ichidagi tabaqalanish va tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari haqidagi bilimlar bizni kollektor havzalarining yaxlitligi haqidagi tushunchaga olib keladi. Relief plastikasi kartasi asosida obyektlar haqidagi bilimlar o'z navbatida Yer yuzasining hosil bo'lishi, taraqqiyoti va relief strukturasini o'rganishga sabab bo'ladi. Kollektor havzalaridagi relief elementlarini va ularning muhim aloqalarini o'rganish o'z navbatida kollektor havzalarini hisobga olgan holda sug'oriladigan hududlarning yaxlitligini, ya'ni chuqurroq asosda tushunish imkonini beradi. Yuqorida aytigandan kelib chiqadiki, havza ichidagi tabaqalanishni o'rganish jarayonida kamida uchta asosiy omilni ajratib ko'rsatish mumkin: Yer yuzasining elementlari; bu elementlarning o'zaro aloqalarini va munosabatlari; havzaning funksional-yaxlitligi. Boshqacha so'z bilan aytganda, har bir kollektor havzasini funksional-yaxlitlik deb tadqiq qilganda, eng avvalambor ana shu havzadagi kichik deltalarini element deb qarash maqsadga muvofiqdir. So'ng esa ana shu kichik deltalarining bir-biri bilan bo'lgan munosabatlarini va aloqadorligini tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari yordamida tahlil qilinadi. Tadqiqotning eng so'nggisida esa, ana shu kichik deltalarining tizimi hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari yordamida kollektor havzalarining funksional-yaxlitligini hosil qilishi tahlil qilinadi, ya'ni biz kollektor havzalarining funksional-yaxlitligi deganda, ana shu havzadagi kichik deltalarining yig'indisini tushunamiz. Shunday qilib, kollektor havzasidagi kichik deltalarining aloqadorligiga sabab bo'lувчи tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarini tadqiq qilish orqali struktura kategoriyasining uch aspekti haqida fikr yuritish mumkin, ya'ni bularga elementlar, elementlarning o'zaro aloqadorligi hamda elementlarning o'zaro birlashib, yaxlit geotizimni hosil qilishi tushuniladi. Qisqa qilib aytganda, ana shu struktura kategoriyasining uch aspektini tadqiq qilib bo'lgandan so'ng kollektor havzasining ichki tuzilishi haqida har qanday bilimga ega bo'lamiz.

Kichik deltalarining havza ichidagi tabaqalanishini va tartibini aniqlash o'z navbatida bizlardan strukturaviy (geometrik) qonunlarni bilishni talab qiladi. Bu tushunarli, chunki har qanday ilmiy bilim konkret real obyektdan umumiylar, mavhum (ideal) obyekt tomon harakat qiladi. Misol uchun, landscape qoplidan (real) landscape fazosiga (mavhum) o'tadi. Geograf yoki landscape shunos faqat landscape fazosining tuzilishini (soddallashtirilgan model) o'rganish mumkin, lekin landscape qoplagini barcha murakkabliklari bilan o'rgana olmaydi. Shu bilan birga, modelda geograf ko'plab parametrlarni hisobga olmaydi, faqat asosiy, zarur bo'lganlari qoladi. Zarur bo'lgan parametrga geometrik shakllar – elementar landscape larning tabiiy rasmlari hisoblanib, ularni matematik tarzda tasvirlash mumkin va rasmlarni o'rganish orqali tabiiy geografiyanı tafakkurning ilmiy prinsipi – strukturaviy (geometrik) fikrlashga olib keladi (Viktorov, 1986; Stepanov, 1986; Urazbayev, 1988). Bu tamoyildan foydalanib, geograf avvalo tadqiq qilinayotgan obyektning havza

GEOGRAFIYA

ichidagi tabaqlanishini yoki ichki tuzilishini ochib beradi, so'ogra esa bu strukturating landshaft, tog' jinslari va yer osti suvlarining moddiy tarkibi bilan bog'liqligini tahlil qiladi. Idrokning birinchi bosqichida u tabiiy kompleksning moddiy tarkibidan butunlay voz kechadi va faqat landshaft fazosining rasmlarini o'rganadi, undagi boshlang'ich (asosiy elementar) qobiqlarni ajratadi, so'ogra esa bu tabiiy qobiqlarning munosabatini, ularning aloqadorligini, ya'ni ichki strukturasini tadqiq qiladi.

Tabiiy geografiya fanidagi tizimli yo'nalishning tipologik va regional yondashuvlarni tahlil qilib, muallif Amudaryo hozirgi deltasini geotizim sifatida qarash xulosasiga keldi, ya'ni delta geotizimi yer usti suv oqimi faoliyatining natijasidir. Bu esa o'z navbatida Amudaryo hozirgi deltasini geotizim sifatida tadqiq qilishga deltaning quyidagi hosil bo'lisch tarixini va ichki tuzilishini hisobga olishni talab etadi: 1. Delta geotizim sifatida Amudaryo va uning tarmoqlari faoliyati natijasida hosil bo'lgan va murakkab daraxtsimon strukturaga egalar; 2. Amudaryoning alohida olingan tarmoqlari ham o'zlarining kichik deltalarini, ya'ni daraxtsimon strukturalarini hosil qilgan, ammo ularning maydoni kichik va oddiy shaklga egadir; 3. Har qanday kichik deltalarini tizim sifatida tadqiq qilinganda ularning hosil bo'lishi tarixiga, relyefning strukturasiga va yanada yirik mashtabli (1:10000) relyef plastikasi kartalarini tuzishga e'tibor berishni talab etadi; 4. Sug'oriladigan hududlarda kichik deltalarining yig'indisi kollektor havzalarining funksional yaxlitligiga sababchi bo'lgan kichik deltalarga alohida e'tibor berish kerak.

V.B.Sochavanning (1963, 1978) asarlari bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, tizimli yondashuvda topologik (geomerlar) va regional (geoxoralar) komplekslarning iyerarxiyasi alohida o'rinn tutadi. Bundan kelib chiqqan holda, har qanday o'rganilayotgan obyektlarda uning tarkibiy qismlarining ma'lum bir iyerarxiyalik bo'yinishi mavjud: geotizim (tizim) quyi tizimlarga bo'linadi, ular o'z navbatida ikkinchi tartibli quyi tizimlarga va nihoyat landshaft qobig'inining elementar landshaftlariga bo'linadi. Tematik kartalarda relyef rasmlari fazoviy tuzilishi tasvirining batafsillik darajasi va ishonchlilagini kichik mashtablardan o'rta mashtabgacha, yirik maktabgacha va batafsilgacha ijobji tomonlarga ega. Misol uchun, Markaziy Osiyo regionining Yer yuzasi kartasida Amudaryo hozirgi deltasini tizimning ikkinchi darajasi sifatida qaralsa, u holda Amudaryo havzasi tizim sifatida qaraladi. Amudaryo hozirgi deltasini Yer yuzasining tizim kartasida delta tizim sifatida qaralsa, kichik deltalar esa tizimining ikkinchi darajasi sifatida qaraladi.

Kollektor havzasining kartasida (kollektor havzalarining kartasi) havza ichidagi tabaqlanish va kichik deltalar relyef shakllarining tartibligi aniq ko'rsatilgan. Havzaning chegarasi sifatida o'zanbo'yi balandliklari hisoblanadi. Kollektor havzasining funksional-yaxlitligini tashkil etuvchi kichik deltalar o'z navbatida boshlang'ich nuqtaga, yuqori, o'rta va qismlarga egadir. Bizlarga ma'lumki, o'zanbo'yi balandliklaridan kollektor o'zani o'tgan pastliklarga qadar va kollektor havzasining yuqori qismidan quyi qismi tomon tabiiy-meliorativ sharoit tizimli o'zgaradi, ya'ni tuproqlarning mexanik tarkibi og'irlashadi, grunt suvlarining minerallashuv darajasi, tuproq sho'rlanishi va boshqalar ortadi. Shu sababli aniq relyef strukturasi bilan ifodalangan kichik deltalarining havza ichidagi tabaqlanishini va tartibini ko'rsatish o'z navbatida tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari yo'nalishi, tuproq hamda grunt suvlarini fazoviy xususiyatlarining o'zgarishlari haqida aniq tasavvurlar beradi (Urazbayev, Nazarov 1996).

26-rasmda kollektor tashlama-1 (KT-1)ning Yer yuzasining haqiqiy strukturasini ko'rsatilgan. Ko'rinish turibdiki, havzaning funksional-yaxlitligi bir necha kichik deltalaridan (Erkidayro, Qozoqdaryo, SHo'rtamboy va Qizketken-Chimboy kichik deltalar) va Kuskanatau qiridan tashkil topgan. Havza maydonning asosiy qismi Erkidayro kichik deltasing sharoq qismiga (g'arbiy qismi Aspantay kollektor havzasi joylashgan), SHo'rtamboy kichik deltasing va Qizketken-Chimboy kichik deltasing g'arbiy qismiga (sharoq qismi KT-3 ning havzasida joylashgan) tegishli. Agar biz havzaning haqiqiy relyef strukturasini tahlil qiladigan bo'lsak, SHo'rtamboy kichik deltasing asosan cho'ziluvchan relyef strukturasini xos bo'lsa, Qizketken-Chimboy kichik deltasing asosan shoxlanuvchi relyef strukturasini xosdir. Bu esa o'z navbatida SHo'rtamboy kichik deltasing tizim hosil qiluvchi oqimlar tezroq va ko'proq energiyaga ega ekanligini bildirsa, Qizketken-Chimboy kichik deltasingda oqimlarning tezligi va energiyasi cho'ziluvchan strukturani hosil qilish uchun yetarli bo'Imaganligini ko'rsatadi. Buni tarmoqlanish nuqtalaridagi oqimlari orasidagi burchaklar ham tasdiqlaydi: ular Qizketken-Chimboy kichik deltasing (40-450) nisbatan SHo'rtamboy kichik deltasingda (20-250) kichikroq.

Agar biz KT-1 havzasidagi Yer yuzasining havzaviy strukturasini tahlil qiladigan bo'lsak, havzaning yuqori qismida Amudaryo o'zanbo'yি balandliklari, Sho'rtamoy va Qizketken-Chimboy kichik deltalarining o'zanbo'yি balandliklari joylashgan. Havzaning g'arbiy qismida Erkindaryo kichik deltasining o'zanbo'yি balandliklari joylashgan bo'lib, ular kollektor tashlama-1 ning o'zani tomon pasayib boradi. Havzaning sharqi qismida Qizketken-Chimboy kichik deltasining o'zanbo'yি balandliklari joylashgan bo'lib, ular g'arb tomon, ya'ni kollektor tashlama -1 ning o'zani tomon pasayib boradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, KT-1ning havzasidagi o'zanbo'yি balandliklari KT-3, KT-4 larning havzalariga nisbatan ko'p maydonni egallaydi. Bunday olib qaraganda, KT-1dagi relyef havzaviy strukturasining o'ziga xosligi shundaki, havzada o'zanbo'yি balandliklari ko'p maydonni egallab, ular havzaning quyi qismi tomon tizimli kamayib boradi, ya'ni havzaning quyi qismida o'zanlararo pastliklar ustunlik qiladi. Qisqa qilib aytganda, barcha kollektor geotizimlarida relyefning havzaviy strukturasini xarakterli bo'lsada, ammo KT-1 havzasida relyefning o'zanbo'yি balandliklari hukmronlik qiladi.

Ushbu kichik deltalarining ichki tuzilishidagi asosiy farqlar ularning meliorativ holatiga ta'sir qiladi. Tuproq-geologik jismlarning cho'zilgan shakllari bilan hududning yuqori tabiiy drenaji yuzaga keladi, bu esa o'z navbatida drenaj yaxshi harakatlashishiga yordam beradi. Bu kichik deltalar yerlarining meliorativ holati tahlil qilinganda grunt suvlarining chuqurligi va minerallashuvi darjasи, tuproq sho'rланishi bo'yicha sezilarli farqlar borligi aniqlandi. Sho'rtamboy kichik deltasida tuz balansi kam, tuproqlar asosan sho'rланмаган va kuchsiz sho'rланган bo'lsa, Qizketken-Chimboy kichik deltasida esa tuz balansi ko'p, ya'ni tuproqlar asosan o'rtacha va kuchli sho'rлангандир.

Kartaning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rganish jarayonida kollektor havzasining eng past hududlarini, ya'ni o'zanlararo pastliklar va turli kichik deltalarining tutashgan joylarini o'rganishga alohida e'tibor berish kerak. Ular ko'pincha kuchsiz oqimsiz yoki deyarli oqimsiz hududlar bo'lib, kimyoviy, suyuq va qattiq oqimlarning to'planish joyi hisoblanadi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, kollektor havzasining markaziy qismlari ko'p hollarda turli yoshdagi kichik deltalarining tabiiy chegaralari bo'lib hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, kollektor havzalarining markaziy qismlari bir vaqtning o'zida turli yoshdagi kichik deltalarining chegaralari bo'lib hisoblanadi, ya'ni kollektor havzalarining markaziy qismlari bilan kichik deltalar bir-biri bilan ajralib turadi. Qisqa qilib aytganda, kollektor havzalarining markaziy qismlaridan kollektchlarning oqib o'tishi o'z navbatida o'zanlarning doimo eng past hududlariga to'g'ri kelishi tabiatning qonunidir.

K.Ritter (1853) Yer yuzasining tabiiy joylanishini geometrik shakllar bilan taqqoslash usulini qo'lladi. U "o'lchov va raqamlar bilan aniq belgilab qo'yilgan fazoviy munosabatlар qanday qilib umuman geografik munosabatlarning mohiyatini yanada yorqinroq tasvirlashga olib kelishini" ochib berishga harakat qiladi (Saushkin bo'yicha, 1980). V.V.Dokuchayev shunday deb yozgan edi: "Yer yuzasining shakllari va mahalliy tuproqlarning tabiatini o'rtasidagi munosabatlarning doimiyligi qonuni, birinchi navbatda barcha tuproq tadqiqotlarini boshqarish kerak bo'lgan qonundir" (Krasyuk bo'yicha, 1937). Boshqacha so'z bilan aytganda, V.V.Dokuchayev va boshqa tabiatshunos olimlar doimo tuproqlarning relyef bilan bo'lgan aloqadorligini tadqiq qilishga katta ahamiyat bergenlar, ya'ni tuproqlarning kichik hududlar bo'ylab geografik tarqalishida relyef shakllarining asosiy rol o'ynashini ular bir necha marta ta'kidlab o'tganlar. Qisqa qilib aytganda, relyef shakllari nafaqat tuproqlarning kichik hududlarda tarqalishida rol o'ynaydi, balki shu bilan birgalikda o'simliklarning kichik hududlarda geografik tarqalishida ham relyef shakllarini va strukturalari asosiy rol o'ynaydi.

XULOSA

Tuproq areallarining geometrik shakllarini aniqlash va tadqiq qilish tuproq meliorativ tadqiqotlarda tabiiy analoglar usulini qo'llash uchun asos bo'ladi. Bu usulga ko'ra eng muhim mezonlardan biri bu geometrik o'xhashlik mezoni, ya'ni o'rganilayotgan jismlarning geometrik shakllarining o'xhashligidir (Kirpichev, 1953; Rozovskiy, 1968). Shu bilan birga, M.Sh.Ishankulov (1986) shuni ta'kidlab o'tadiki, konus yoyilmalarining landshaft birliklari bir-biriga morfologik jihatdan o'xhash bo'lib, ammo ular tizimning har xil joylarida joylashgan bo'lsa, ular analoglar talablariga javob bermay, balki ular gomologik mezonlarga javob beradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, agar kollektor havzasining yuqori qismida joylashgan sug'oriladigan o'tloq-taqir tuproqlar o'zlarining barcha xususiyatlari bilan quyi qismdagi sug'oriladigan o'tloq-taqir tuproqlardan farq qiladi. Bu o'rinda tuproqlarning joylashgan o'rni ham muhim ilmiy ahamiyatga ega, ya'ni geografik o'rin sug'oriladigan o'tloq-taqir tuproqlarining meliorativ holatini belgilab beradi. Qisqa qilib

GEOGRAFIYA

aytganda, tuproqlarning meliorativ holatini tadqiq qilishda ularning kollektor havzasidagi geografik o'rniغا ham alohida e'tibor berish lozim.

Tuproq qoplamining elementlari, quiy tizimlari yoki tizimlari shakllarining o'xshashligi hamda moddiy tarkibi va jarayonlarining o'xshashligi tuproqlarning meliorativ holatining o'zgarishining belgilangan tendetsiyalarini ko'proq o'rganilgan obyektlardan kamroq o'rganilgan obyektlarga o'tkazishga imkon beradi (Stepanov, 1979). I.N.Stepanov o'zining tadqiqotlarini Amudaryo hozirgi deltasining o'ng qirg'og'ida olib borgan bo'lib, tuproqlarda kelajakda bo'ladijan tuproq jarayonlarini prognoz qiladi. Olimning fikri bo'yicha, o'zlashtirilmagan hududlarni o'zlashtirilgandan so'ng bo'ladijan tuproq jarayonlarini tahlil qilish orqali bu bilimlarni kelajakda o'zlashtiriladigan hududlarda bo'ladijan tuproq jarayonlarini prognoz qilish mumkin. Biz ham I.N.Stepanovning g'oyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda KT-1 havzasini boshqa havzalarga nisbatan yaxshi o'rganganligi uchun, bu obyekt haqidagi bilimlarimizni boshqa kollektor havzalariga tatbiq qilish mumkin.

Shunday qilib, kichik deltalarga relyefning daraxtsimon strukturasi xos bo'lsa, kollektor geotizimlariga esa relyefning havzaviy strukturasi xosdir, ya'ni har bir kollektor geotizimidagi relyefning havzaviy strukturasi boshqa kollektor havzasidagi relyefdan tubdan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir kollektor geotizimidagi relyefning havzaviy strukturasi o'zidagi elementlarning (o'zanbo'yi balandliklari, o'zanbo'yi balandliklarining yonbag'irlari, o'zanlararo pastliklar) maydonlari bo'yicha xarakterlanadi, ya'ni elementlarning aynan shu o'lchamdag'i maydonlari faqat shu kollektor havzasiga tegishlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Звонкова Т.В. и др. Теоритические основы и методы оценочного картографирования природных условий и ресурсов //Оценочные карты природы, населения и хозяйства. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – С. 5-10.
2. Ретеюм А.Ю. Физико-географическое районирование и выделение геосистем. // Вопросы географии, - М.: Мысль, 1975. — Сб.98. -С.5-27.
3. Степанов И.Н. Формы в мире почв.-М.: Наука, 1986.-192 с.
4. Уразбаев А.К., Хурсанов Д.Б. Амударё ҳозирги дельтаси ландшафтларининг структураси. – Самарқанд. 2020. -138 б.
5. Звонкова Т.В. и др. Теоритические основы и методы оценочного картографирования природных условий и ресурсов //Оценочные карты природы, населения и хозяйства. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – С. 5-10.
6. Шульгин А.М. Мелиоративная география. –М.: Высшая школа, 1980. -288 с.
7. Иброимов Шерзод Иброим о'гли. (2024). ТАБИИ ГЕОГРАФИК ФАНЛАР ТИЗИМИДАГИ ХАВЗАВИЙ УСУЛ ВА УНИНГ ТАБИАТ КОМПОНЕНТЛАРИНИНГ О'ЗАРО АЛОКАДОРЛИГИНИ ТАДКИК КИЛИШДАГИ РОЛИ. Конференции | Конференции , 1 (11), 63–67. Получено с <https://www.uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/3013>.
8. Шерзод ИБРОИМОВ. (2024). АМУДАРЁ ҲОЗИРГИ ДЕЛЬТАСИ КОЛЛЕКТОР ХАВЗАЛАРИДАГИ ПАРАГЕНЕТИК ЛАНДШАФТ КОМПЛЕКСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАБИИ МЕЛИОРАТИВ ШАРОИТИ. УзМУ Хабарлари , 3 (3,1), 229-233. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v3i3.1.1780>